TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XAYITOV PANJI BUXAROVICH

ENERGETIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING EKOLOGIK-HUQUQIY MASALALARI

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 349.6(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертатсии доктори философии (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XAYITOV PANJI BUXAROVICH

ENERGETIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING EKOLOGIK-HUQUQIY MASALALARI

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Yu590-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Narzullayev Olim Xolmamatovich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Utegenov Ongarboy Dariyabayevich** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Kenjaev Rustam Xaydarovich yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 29-mart kuni soat 12.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1366-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 14-martdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi)

S.S.Gulyamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Sh.N.Raxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

D.N.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda energetik barqarorlikni ta’minlash ekologik-huquqiy muammolarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, energiya resurslariga bo‘lgan talabning o‘sishi, ekologik toza va xavfsiz energiya manbalarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[1] Shuning uchun issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish, energiya ta’minotida ekologik barqarorlikni ta’minlash nafaqat bugungi kunning ustuvor yo‘nalishi, balki kelajak avlodlar uchun barqaror yashash sharoitlarini yaratishda dolzarb va hal qiluvchi zarurat hisoblanadi. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yilda energiya bilan bog‘liq CO_2 chiqindilari 37,4 milliard tonnaga yetgan va bu asosan ko‘mir chiqindilari, qurg‘oqchilik tufayli hamda gidroenergetikadagi (suv) tanqislik hisobiga o‘sgan.[2] “2024-yilda dunyo aholisi soni 8 milliard kishiga yetdi”[3]. Shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish orqali issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish mumkin. Energiya manbalarini diversifikatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda energetik xavfsizlik global iqtisodiyot va davlatlarning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni tadqiq qilish tendensiyasi ortib bormoqda. Shu bois, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, texnologik almashinuvni yo‘lga qo‘yish, investitsiya muhitini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarbdir. Energetik xavfsizlik davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Energetika xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qonunchilikni mukammallashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro hamkorlik doirasida Yevropa Ittifoqi, Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEC) va Xalqaro energetika agentligi (IEA) kabi tashkilotlar energetika xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. Biroq energetik xavfsizlikni ta’minlash jarayonida iqtisodiy va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi. Chunki tezkor sanoatlashtirish va energiya talabining ortishi ayrim hollarda ekologik xavflarga hamda resurslarning nomutanosib taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Bularning barchasi energetik xavfsizlikni ta’minlashga doir tadqiqotlar mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekistonda energetik xavfsizlikning ekologik-huquqiy jihatlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda, bu esa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, ekologik standartlar va me’yorlarni joriy etish, atmosfera ifloslanishini pasaytirish, yangi loyihalarni ekologik ekspertiza asosida baholash hamda jamoatchilik nazoratini o‘rnatishni o‘z ichiga oladi. Prezidentimiz 2024-yil 13-dekabrda yangi energetika quvvatlarini ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta’kidlaganidek: “Bugungi tadbir yurtimiz energetikasi tarixida yangi sahifa ochadi. Ishga

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi COP 29 dagi nutqidan (12.11.2024). https://president.uz/uz/lists/view/7690

[2]International Energy Agency (IEA). CO2 Emissions in 2023. A new record high, but is there light at the end of the tunnel? Typeset in France by IEA — February 2024. P. 3.

[3]Countrymeters.info. https://countrymeters.info/ru/World

tushirilayotgan bu loyihalar orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishga erishamiz, balki kelajak avlodlarimiz uchun yashil va barqaror O‘zbekistonning mustaqil poydevorini yaratamiz”.[4] Davlatimiz quyosh energiyasining 51 milliard tonna neft ekvivalentidan ortiq salohiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, bu resursdan foydalanish darajasi hali ham past.[5] 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida atmosfera ifloslanishini kamaytirish, yangi loyihalarni ekologik ekspertiza asosida baholash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bu borada energetik xavfsizlik sohasidagi qonunchilik xalqaro talablar, qoidalarga muvofiqlashtirilmoqda**,** bu esa ushbu sohani o‘rganish uchun yana bir asosdir.

Energetik xavfsizlikni ta’minlash va ekologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yangi qonunlar va islohotlar joriy etildi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmonlari va boshqa me’yoriy hujjatlar energetik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu qonunchilik hujjatlari tadqiqotning institutsional-huquqiy asoslari hisoblanadi. Shuningdek, ushbu dissertatsiya tadqiqoti, qonun hujjatlarini takomillashtirilishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarining rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish usullari” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda energetik xavfsizlikni ekologik-huquqiy tartibga solish masalalarining ilmiy va nazariy-huquqiy jihatlari bo‘yicha ekologiya huquqi nazariyasi nuqtayi nazaridan monografik tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti bilan bog‘liq masalalar mamlakatimiz huquqshunos ekolog olimlari tomonidan umumiy yondashuvda, turli darajalarda qisman o‘rganilgan. Mamlakatimiz olimlari, jumladan, Y.O. Jo‘rayev, Sh.X. Fayziyev, J.T. Xolmo‘minov, O.X.Narzullayev, G.Sh. Uzakova, D.M. Umarov, R.H. Kenjayev, N.SH. Rajabov, D.N. Maxkamov, O.D. Utegenov, J. Safarov, U.T. Ayubov, N.K. Skripnikov, M.R. Mirzaabdullayeva, O‘. Xamroyev va boshqalarning ilmiy asarlariga alohida e’tibor qaratildi. Ba’zi huquqshunos olimlarimiz esa mazkur mavzuning ayrim jihatlarini bevosita o‘rganishda ishtirok etgan[6].

[4] https://president.uz/uz/lists/view/7764

[5]https://lex.uz/uz/search/unique.

[6] Xolmo‘minov J.T., Narzullayev O.X. Muqobil energiya manbalarini huquqiy tartibga solish. Risola. – T.: TDYU, 2016. 86-bet. Xolmo‘minov J.T. Energiya sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish. Monografiya. – Toshkent: TDYU, 2019. 216-bet. Jurayev Y.O. Energetika huquqining shakllanishi: nazariy va huquqiy muammolar. Energetika qonunchiligini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.:

Xorijiy davlatlarda energetikaning ekologik-huquqiy tartibga solish masalalari o‘ziga xos jihatlari bilan tadqiq etilgan va ushbu sohada yuzaga kelgan nazariy masalalar, masalan, S. Olz, R. Sims, N. Kirchner, F.Y. Zekker, J.H. Kalicki, V. Naughten, F. Yamin kabi olimlarning ilmiy ishlarida qisqacha ko‘rib chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarining bir qator olimlari, jumladan, I.S. Shepanskiy, Y.G. Shpakovskiy, S.A. Bogolyubov, M.M. Brinchuk, G.Y. Bistrov, M.I. Vasilyeva, O.L. Dubovik, N.G. Javoronkova, O.S. Kolbasov, V.V. Petrov, I.R. Ayzenberg, Y.L. Baron, A.N. Bereza, Y.V. Blinkova, S.A. Bogolyubov, P.G. Laxno, N.M. Laxtovskiy, A.N. Lisenko, A.I. Perchik, D.A. Petrov, P.P. Yamaletdinovlar tomonidan energetik xavfsizlikning ekologik-huquqiy tartibga solish masalalarining ba’zi jihatlari ilmiy tadqiqotlarda qisqacha ko‘rib chiqilgan[7].

Aksariyat ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘lishiga qaramay, yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlari yuqori baholansa-da, ularning asarlarida O‘zbekistonda ekologik faoliyatda energetik xavfsizlikni ta’minlashning ekologik-huquqiy masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilmagan. Shu sababli ushbu masalani alohida o‘rganish zarurligini ta’kidlashimiz kerak[8].

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Energetik xavfsizlikni ta’minlashning ekologik-huquqiy masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining energetika qonunchiligi hujjatlarini rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

energetik xavfsizlikni ta’minlash tushunchasining yuridik tavsifi va mohiyatini ochib berish;

TDYU nashriyoti, 2015. 7-12-b. Fayziyev Sh.X. Energetika sohasida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid ekologik talablarning huquqiy asoslari: tizimli tahlil. // Energetika qonunchiligini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2015. Uzakova G.Sh. O‘zbekiston Respublikasida muqobil energiya resurslaridan foydalanishning huquqiy masalalari. // “O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish”: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. 48-52-b. Ekologiya huquqi. Darslik // Bozorov U.B., Xolmo‘minov J.T., Jo‘rayev Y.O., Environmental and Energy Law as a Field of Research: A Structural Overview Jorge E. Vifiuales and Emma Lees./ University of Cambridge, UK. Cambridge University Press, 2017. Яковлев В.Ф. Правовое регулирование право как энергетического комплекса отрасл права России. Энергетичиское право России и Германии: сравнительно-правовое исследование /Под ред. П.Г. Лахно, русск. Изданий. М.: Юрист, 2011. – С. 127.

[7] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari nomi dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan..

[8] Narzullayev O.X. Muqobil energiya manbalarini huquqiy tartibga solish. Risola. – T.: TDYU, 2016. – 86-b. Mahkamov D.N. Muqobil energiya manbalaridan foydalanishda ekologik qonunchilikning o‘rni. // Energetika qonunchiligini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYU nashriyoti, 2015. 73-b. Safarov D.I. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi qonunchilikning mustaqillik yillarida rivojlanishi hamda yanada takomillashtirish istiqbollari. // “O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish”: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. 130-138-b. Mirzaabdullayeva M.R. O‘zi foydalanishi uchun elektr energiyasini hosil qilishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari//Energetika qonunchiligini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari. – T.: TDYU nashriyoti, 2015.

energetik xavfsizlikning ekologik va huquqiy jihatlarini ko‘rsatish, shuningdek, milliy tizimdagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish;

an’anaviy energiya manbalarining atrof-muhitga ta’siri va ularga xos xususiyatlarni taqdim etish;

energetik xavfsizlikda ekologik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari huquq va majburiyatlarini tahlil qilish;

iqlim o‘zgarishlari sharoitida energetik xavfsizlikni ta’minlash masalalarini o‘rganish va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

energetika sohasida atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini belgilash, obyektlar joylashuvi va faoliyatining ekologik-huquqiy mexanizmlarini ochib berish;

energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzish bilan bog‘liq javobgarlik masalalarini o‘rganish va ularning oldini olish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

energetik xavfsizlikni ta’minlashning ekologik-huquqiy masalalarini tartibga solishdagi mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan xulosa va takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida energetika qonunchiligi hujjatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmeti energetika sohasida ekologik xavfsizlikni ta’minlashga oid huquqiy asoslarni tizimli tahlil qilishdan iborat bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir normalar va soha qonun hujjatlari amaliyotini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida uning obyektiga kiruvchi masalalarni o‘rganish, tahlil qilish, tarixiy, tizimli-tarkibiy va qiyosiy tahlil, statistik asoslash, mantiqiylik, amaliy natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqaro uy-joy, bino inshoot yoki yer uchastkasiga qurilmalarni o‘z ehtiyojidan kelib chiqib o‘rnatilishi mumkinligi, bunda o‘rnatilgan qurilmalar xarajatlarining bir qismi bo‘yicha kompensatsiyalar to‘lash tartibini joriy etish, aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lagan holda sotib olish tartibi asoslantirilgan;

elektr energiyasini sotib oluvchi tushunchasiga quvvati 1 MVtgacha bo‘lgan quyosh, shamol va biogaz elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasini o‘z tarmog‘iga qabul qiluvchi elektr tarmoqlari korxonalari yoki boshqa jismoniy va yuridik shaxslar deb ta’rif berilishi asoslab berilgan;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun o‘rnatiladigan quvvati 1 MVtgacha bo‘lgan quyosh, shamol va biogaz elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining o‘z ehtiyojidan ortiqcha qismini “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va davlat tomonidan elektr energiyasini xarid qiluvchi funksiyasi (vakolati) berilgan organ tomonidan iste’molchi xohishiga ko‘ra, kamida 10 yil muddat davomida xarid qilish imkoniyati yaratilishi bilan tartibini belgilash asoslantirilgan;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini joylashtirish uchun yer uchastkalarini ajratish zarurati energiya xavfsizligi, ekologik barqarorlik, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, yer ajratish jarayonini tizimli va shaffof tashkil etish qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanishi zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

energetik xavfsizlikni ta’minlashda ekologik-huquqiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, barqaror va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish uchun huquqiy asoslarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslangan va aniq takliflar berilgan;

energiya obyektlarining atrof-muhitga ta’sirini baholash huquqiy mexanizmini takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlashda davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga doir huquqiy mexanizmlarni yaratish, jamoatchilik ongini oshirish maqsadida ekologik xavflarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

energetik xavfsizlikning ekologik-huquqiy shakllanishini tartibga solish, takomillashtirish bilan bog‘liq konseptual xulosalar taqdim etilgan;

energiya tejash, oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida, ekologik-huquqiy shakllanishni yoritish va milliy tizimdagi o‘rni, davlatning vakolatli organlari tomonidan qonunchilik hujjatlarini tizimli ravishda monitoring qilish uchun yaxlit tizimni joriy etish, bu sohada qonunchilik hujjatlarining ijrosini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi asoslangan;

ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalardan kelgusi ilmiy izlanishlarda, qonunchilik faoliyatida, energetik xavfsizlik sohasiga oid qonun hujjatlarini sharhlashda va milliy qonunchiligimizni yanada takomillashtirish jarayonida samarali foydalanilishi mumkin;

energetik xavfsizlikni ta’minlashning ekologik-huquqiy masalalari tushunchasiga ilmiy-doktrinal asosdagi ta’rif berildi, energetik xavfsizlikni ta’minlash jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yangi texnika va texnologiyalar orqali shakllantirish uchun aniq takliflar ishlab chiqilgan;

energetik xavfsizlikni ekologik-huquqiy jihatdan ta’minlash maqsadida ilgari surilgan takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasining “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonuniga energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etishni ko‘zda tutuvchi qator o‘zgartirishlar kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi milliy va xalqaro huquq me’yorlariga asoslanib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati aniq belgilangan bo‘lib, xulosa, taklif va tavsiyalar tegishli tartibda muhokama qilingan, natijalari respublika va xalqaro nashrlarda chop etilgan va amaliyotga joriy etilgan, shuningdek, tegishli organlar tomonidan tasdiqlangani orqali ishonchlilik ta’minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot ishining ahamiyati energetik xavfsizlikni huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy yondashuvlarni kengaytirishda, tadqiqotda olingan natijalar, ilmiy-amaliy takliflar va ilgari surilgan tavsiyalar kelajakda qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, energetika sohasiga oid muammolarni chuqurroq o‘rganishda, tegishli qonun hujjatlarini yaxshilashda, shuningdek, ekologiya huquqi, yer huquqi, agrar huquq va energetika huquqi kabi sohalarning ilmiy-nazariy bazasini boyitishda, energetik xavfsizlikni huquqiy tartibga solish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishda, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish imkonini beradi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati energetik xavfsizlikni huquqiy tartibga solishga doir qonun hujjatlarini tayyorlash hamda qonunni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish jarayonida, oliy yuridik ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida qo‘llanayotganida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Energetik xavfsizlikni ta’minlashning ekologik-huquqiy masalalari” mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

fuqarolar uy-joy, bino-inshoot yoki yer uchastkasida o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib qurilmalar o‘rnatish huquqiga ega bo‘lib, ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash maqsadida xarajatlarning bir qismini kompensatsiya qilish tartibini joriy etish taklif etilgan. Bu taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi 568-son qarori bilan tasdiqlangan “Aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lagan holda sotib olish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 6-bandini ishlab chiqishda asos sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2023-yil 19-dekabrdagi 12-15-125-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi aholining o‘z energiya ehtiyojlarini mustaqil qondirish imkoniyatlarini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ekologik barqarorlikni ta’minlashga zamin yaratadi;

elektr energiyasini sotib oluvchi tushunchasiga quvvati 1 MVtgacha bo‘lgan quyosh, shamol va biogaz elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasini o‘z tarmog‘iga qabul qiluvchi elektr tarmoqlari korxonalari yoki boshqa jismoniy va yuridik shaxslar deb ta’rif berish haqidagi takliflari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyundagi 247-son qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining ehtiyojdan ortiqcha qismini sotish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 3-bandini ishlab chiqishda asos sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2023-yil 19-dekabrdagi 12-15-125-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya bozorini rivojlantirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun o‘rnatiladigan, quvvati 1 MVtgacha bo‘lgan quyosh, shamol va biogaz elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining o‘z ehtiyojidan ortiqcha qismini “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va davlat tomonidan elektr energiyasini xarid qiluvchi funksiyasi (vakolati) berilgan organ tomonidan iste’molchi xohishiga ko‘ra, kamida 10 yil muddat davomida xarid qilish imkoniyatini yaratish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-son Farmonining 6-bandiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 11-martdagi 9/30-24-03-son Dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirish, energiya bozorini rivojlantirish va elektr energiyasini uzluksiz ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini joylashtirish uchun yer uchastkalari berilishini ta’minlash bilan bog‘liq taklif O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ–539-son Qonunining 8-moddasida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 11-martdagi 9/30-24-03-son Dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi energiya mustaqilligini ta’minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirishga zamin yaratadi;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishi natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy yig‘inlarda muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga oid jami 25 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta ilmiy risola, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, ulardan 11 tasi respublika, 4 tasi esa xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya quyidagi bo‘limlardan iborat: kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi,

tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Energetik xavfsizlikni ta’minlashning ekologik-huquqiy tavsifi”** deb nomlangan. XX asr davomida energetika sohasi jahon miqyosidagi taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllangan. XXI asrda esa energiyaga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib, global iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biriga aylangan. Rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiruvchi O‘zbekiston Respublikasida energetik xavfsizlik masalasi barqarorlik va milliy xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim strategik vazifa sifatida belgilanganligi alohida o‘rganilgan. Zamonaviy energetika huquqining olimlari P.G. Laxno, F.Y. Zekkerning fundamental nazariy qarashlari tahlil etilgan. Shuningdek, energetik xavfsizlikni ta’minlash tushunchasining yuridik tavsifi va mohiyati, energetik xavfsizlikning ekologik va huquqiy jihatlari, milliy tizimdagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi.

Dissertatsiya ishida “energiya xavfsizligi”, “energiya mustaqilligi”, “ekologik xavfsizlik” tushunchalariga alohida ta’riflar berilgan. Bu masalalar ekologik xavfsizlik va energetika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rnatadi. Energiya manbalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish jarayonlari atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun ekologik xavfsizlik va energetik xavfsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada A.N. Larin, P.G. Laxno, F.Y. Zekker, V.V. Dubovkin, S.M. Korneyev va L.A. Sisar kabi olimlar fikrlari tahlil qilingan. Ekologik xavfsizlik energiya ishlab chiqarish jarayonida inson faoliyatining salbiy ta’sirlarini kamaytirish va davlatning ekologik barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.

Tadqiqotchining yozishicha, zamonaviy energetika huquqi besh asosiy tamoyilga asoslanadi: ekologik huquq (atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish), shartnoma huquqi (energetika sohasidagi kelishuvlarning huquqiy barqarorligini ta’minlash), biznes huquqi (investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash), raqobat huquqi (bozorda sog‘lom raqobatni rivojlantirish va monopoliyalarni kamaytirish), hamda barqaror energiya ta’minoti (ta’minot xavfsizligi, samaradorlik va ekologik barqarorlikni ta’minlash). Ushbu tamoyillar energetika huquqining asosini tashkil etib, xavfsiz va barqaror energiya manbalarini qonuniy asosda ta’minlashni ko‘zda tutadi.

Zamonaviy va tan olingan nazariyalar asosiy metodologik yondashuv sifatida qaraladi. Misol uchun, barqaror rivojlanish nazariyasi – bu tamoyillar energetika xavfsizligini ta’minlashda resurslarni tiklash, iqlim o‘zgarishlariga moslashish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan. Ekologik xavfsizlik nazariyasi tabiiy resurslar va atrof-muhitni himoya qilish orqali inson va davlat xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuvlar energetika va ekologik xavfsizlik masalalariga tizimli yondashish imkoniyatini yaratdi.

A.N. Larinning ta’rifiga ko‘ra, ekologik xavfsizlik atrof-muhitning antropogen faoliyat (inson tomonidan olib boriladigan iqtisodiy, texnik, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlar) yoki tabiiy ofatlar tufayli yuzaga keladigan zararli ta’sirlardan himoyalanganligini bildiradi. Mazkur tushuncha jamiyat, davlat va shaxslarning

ekologik xavfsiz hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan choralar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Muallifning fikricha, ekologik xavfsizlikni jamiyatni, alohida shaxslarni va hududlarni atrof-muhitdagi xavf-xatarlardan himoya qilish, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish, tabiiy resurslar va ekotizimlarni saqlash, shuningdek, ularni boshqarishning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish deb ta’riflash mumkin.

Tadqiqot ishida ekologik xavfsizlikni ta’minlash energetik xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ushbu masalani huquqiy jihatdan tartibga solish har ikki xavfsizlikni birgalikda mustahkamlashga yordam berishi ta’kidlanadi.

Ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, atrof-muhitni himoya qilish tushunchasining o‘rniga ekologik xavfsizlikni ta’minlash atamasini ishlatish zarur hisoblanadi.[9] A.M. Arxipovning fikrlariga ko‘ra, ekologik xavfsizlik muammosini milliy xavfsizlikning eng yirik muammosi sifatida qarash lozimligi aytib o‘tilgan.[10] Ekolog olim professor Sh.X. Fayziyevning fikricha, “milliy xavfsizlik tizimida ekologik xavfsizlik kompleks tizim bo‘lib, muhim rol o‘ynaydi va uning asosiy maqsadi jamiyat va tabiatning barqarorligini saqlashga yo‘naltirilgan”[11]. Ekolog olim Sh.Y. Jurayevning fikricha, yuridik tabiatni tahlil qilishda quyidagi ikki jihatni hisobga olish zarur: birinchisi – atrof-muhitga ta’sir qilishning xarakteri va miqyosi, ikkinchisi esa, bu ta’sir natijasida sifat jihatdan jiddiy o‘zgargan atrof-muhitning inson, jamiyat va davlat manfaatlariga salbiy ta’siri. Birinchi holat yuzaga kelganda, ikkinchisi ham albatta yuz beradi. Bu yerda tabiatga ta’sir qiluvchi hodisa falokat (ofat) deb qaraladi va “falokatga uchragan” tabiat, o‘z navbatida, inson, jamiyat va davlatga zarar yetkazadi. Ushbu holatlar ekologik xavf tushunchasini bildiradi. Ekologik xavf hodisasi esa favqulodda vaziyat deb hisoblanadi.[12].

O. Oqyulovning fikricha, energiya oddiy moddiy mahsulot sifatida tushunilmaydi. Energiya o‘zida moddiylik unsurlarini namoyon qilib, ma’lum bir moddiy holatni aks ettiradi. Ushbu xususiyatlar insonlarga samarali natijalarga erishish va turli texnik jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Energiyaning fizik xususiyatlari tufayli uni boshqa mahsulotlar kabi katta hajmdagi omborlarda yoki maxsus idishlarda saqlashning iloji yo‘q. Energiyaning foydali tomonlari undan foydalanish va iste’mol qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon natijasida bajarilgan ish yoki texnik operatsiyalarni amalga oshirishda ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin, ammo energiya mahsulotga yoki boshqa shaklga aylanmaydi, balki o‘zini yo‘qotadi. Energiyaning mavjudligi va undan foydalanish faqat maxsus o‘lchov uskunalarining ko‘rsatkichlarida aks etadi.

Dissertantning qayd etishicha, energiya resurslaridan foydalanishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, ekologik xavfsizlik talablariga javob

---

[9] Лопатин В.Н. Экологическая безопасность: проблеми конституционной законности. Государство и право, 2004. №2. – С. 21

[10] Архипов А.М. Экологическая функция Российского государство. Н. Новгород. Диссертатция по соискание учёной. Ст. к.й.н. 1997. – С. 37.

[11] Файзиев Ш.Х. Теоретеческое проблеми правового обеспечение экологическое политики Республики Узбекистан. Автореферат. Диссер. На соне.уч.ст. д.ю.н. – Ташкент: ТГЮИ, 2004. – С. 23.

[12] Jurayev Sh.Y. O‘zbekistonda ekolgik xavfsizlikni ta’minlashning nazariy-huquqiy masalalari. Dissertatsiya. Y.f.n. Toshkent TDYI, 2012. – 29-30-betlar.

beradigan energiya tizimiga o‘tishni rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu, o‘z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytiradi va ekologik barqarorlikka erishishga xizmat qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari – quyosh, shamol, gidroenergiya va biomassa – an’anaviy energiya manbalariga qaraganda atrof-muhitga kamroq salbiy ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy energiya manbalari asosan karbonat angidrid (CO_2) kabi issiqxona gazlari chiqindilarini ko‘paytiradi. Qayta tiklanuvchi energiya esa uglerod chiqindisiz bo‘lib, iqlim o‘zgarishining oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishida shunga asoslanib, “energiya ta’minoti xavfsizligi” energiya manbalarining arzon narxlarda va uzluksiz mavjud bo‘lishini ta’minlash sifatida belgilandi. Bunday barqarorlikka texnologik murakkablik, atrof-muhitga salbiy ta’sir va transport bilan bog‘liq qiyinchiliklar tahdid solishi mumkin. Hozirda “energiya xavfsizligi” tushunchasining turli talqinlari va formulalari mavjud, ammo yagona umumiy ta’rifga erishilmagan. “Energiya xavfsizligi” atamasi milliy xavfsizlikka oid davlat siyosatini tartibga solish uchun birinchi marta 1947-yilda AQShda qo‘llangan, ammo u keng tarqalib, dolzarb muammo sifatida 1973-yilgi neft inqirozidan keyin yuzaga keldi.

Muallifning fikricha, energetik xavfsizlik – bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, milliy xavfsizlik va aholi turmush darajasini ta’minlash maqsadida energiya resurslarini ishonchli, uzluksiz va ekologik xavfsiz manbalardan ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yuridik, institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni o‘z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir.

Тадқиқот ишида, sun’iy intellekt texnologiyalari energetika sohasida ekologik barqarorlikni ta’minlashda katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Energiya sarfini samarali boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish, chiqindilar va gazlarni nazorat qilish, shuningdek, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish orqali ushbu texnologiyalar kelajakda energetik barqarorlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois sun’iy intellekt rivojlanishi va uni energetika sohasida kengroq qo‘llash ilmiy va amaliy tadqiqotlar uchun dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Dissertantning fikricha, sun’iy intellekt texnologiyalari energiya xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta’minlashda katta imkoniyatlarga ega. Sun’iy intellekt jamiyatga atrof-muhitni asrashda va energiyadan samarali foydalanishda yordam berishi mumkin. Ushbu texnologiyalar qonunchilik, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida yangi yechimlar yaratish, inson omillari sababli yuzaga keladigan xato va kamchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida energiya iste’moli kamayishi va iqtisodiy samaradorlik oshishi mumkin, bu esa kelajakda jamiyat va tabiat uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tadqiqotchining qayd etishicha, ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagi asosiy tamoyillar muhim sanaladi. Jumladan, **radiatsiya xavfsizligini ta’minlash; avariyalarga tayyorlik va ularning oldini olish; ekologik nazorat va monitoring.** Ushbu tamoyillarning mohiyatiga qaraydigan bo‘lsak. Birinchidan, atom energiyasidan foydalanishda radiatsiya xavfsizligiga alohida e’tibor beriladi. Bunda radiatsiya manbalarini boshqarish, ularni to‘g‘ri saqlash va utilizatsiya qilish talablari belgilanadi. Ikkinchidan, qonun avariyalar sodir bo‘lganda aholi va atrof-

muhitni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Buning uchun atom obyektlarida maxsus xavfsizlik va avariyaga qarshi rejalar ishlab chiqiladi. Uchinchidan, yadroviy qurilmalar joylashgan hududlarda doimiy ekologik monitoring o‘tkazish va radiatsiyaviy ta’sir darajasini tekshirib borish majburiy hisoblanadi. Bu choralar radiatsiya chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Energetik xavfsizlikni huquqiy tartibga solish obyekti sifatida”** deb nomlanib, unda an’anaviy energiya manbalarining atrof-muhitga ta’siri va o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan, ayni paytda respublikamizning umumiy ishlab chiqarish quvvati, O‘zbekistonda energiya xavfsizligini ta’minlash va ekologik muhofazani kuchaytirish uchun bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi alohida tahlil qilinadi. Dissertatsiyada energetik xavfsizlikni huquqiy tartibga solish obyekti o‘rganilganda olimlar (Sh.X. Fayziyev, Y.O. Jo‘rayev, J.T. Xolmo‘minov O.X. Narzullayev, P.G. Laxno, O.L. Dubovik)ning fikrlari tahlil qilindi.

Dissertatsiya ishida mavjud an’anaviy energiya tizimida energetik xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ta’kidlash muhim.

Birinchidan, ishga tushirilganiga 25 yil bo‘lgan IES energobloklarining past samaradorligi – eski elektr stansiyalarda foydali ish koeffitsiyenti (FIK) 25-35 % darajasida bo‘lib, zamonaviy bug‘-gaz qurilmalariga nisbatan ikki baravar yuqori yoqilg‘i sarfini talab qiladi.

Ikkinchidan, ta’minotdagi uzilishlar va sifatning pasayishi – taqsimlovchi tarmoqlar va transformatorlarning yuqori darajada eskirganligi sababli elektr ta’minotida ko‘p sonli uzilishlar va energiya sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashuvi kuzatilmoqda.

Uchinchidan, elektr uzatish liniyalari va transformatorlarning aksariyat qismi past quvvat uzatish imkoniyatiga ega bo‘lib, iste’molchilarga elektr energiyasini zarur miqdorda yetkazib berishni ta’minlay olmaydi.

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, an’anaviy energiya manbalarining atrof-muhitga ta’siri va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, an’anaviy energiya manbalari (neft, ko‘mir, tabiiy gaz va boshqa qazib olinadigan yoqilg‘ilar) O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tayanchi sifatida xizmat qiladi, chunki ular tabiiy resurslarning muhim qismini tashkil etadi. Biroq ularning ekologik ta’siri hamda cheklangan resurs sifatidagi xususiyatlari ushbu manbalardan foydalanishni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ushbu masalalar atrof-muhitga ta’siri nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilganda, atmosferaning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv va yer resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikka salbiy ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, radioaktiv chiqindilar bilan bog‘liq ekologik huquq sohasidagi muammolar yuzaga keladi.

An’anaviy energiya manbalarining o‘ziga xos jihatlari, salbiy tomonlari va afzalliklari quyidagilarga ko‘ra, alohida ahamiyatga ega. An’anaviy yoqilg‘ilar yuqori energiya ishlab chiqarish quvvatini ta’minlaydi. Qazib olinadigan yoqilg‘ilar cheklangan miqdorda bo‘lib, qayta tiklanmaydigan manbalardir. Ularning uzoq muddat davomida foydalanish imkoniyati resurslarning tugashi xavfi bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz an’anaviy yoqilg‘ilarning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun quyidagi choralarni ko‘rmoqda: qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol, gidroenergetika) foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va yangi, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, xalqaro hamkorlik va iqlim o‘zgarishiga qarshi qo‘shma dasturlarni rivojlantirish.

Tadqiqot ishida an’anaviy energiya manbalari ustuvorligini qayta ko‘rib chiqish nafaqat ekologik xavflarni kamaytirishi, balki barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

An’anaviy energetika tizimining muammolaridan biri – raqamlashtirish va avtomatlashtirishning past darajasi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini keng qo‘llash zarur. Binolarning energiya samaradorligi, energiya iste’molini boshqarish va quyosh hamda shamol energiyasining samaradorligini oshirishda bu texnologiyalar katta yordam beradi. Bu texnologiyalar real vaqt rejimida energiya ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va natijalarni prognozlashni yaxshilaydi.

Bizning tasavvurlarimizga ko‘ra, an’anaviy energiya manbalari qayta tiklanmaydigan va cheklangan resurslardan iborat bo‘lib, ularga ko‘mir, neft va tabiiy gaz kabi yer osti yoqilg‘ilari manbalari yordamida energiya ishlab chiqarish kiradi. Ushbu manbalar uglerod dioksidini katta miqdorda atmosferaga chiqaradi.

An’anaviy energiya manbalaridan foydalanish jarayonida chiqariladigan zararli gazlar, masalan, uglerod dioksidi, sulfur oksidlari va azot oksidlari, atmosferani ifloslantirib, havo sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun**,** ko‘mirdan foydalanish vaqtida yuzaga keladigan uglerod dioksid chiqindilari global issiqlikning oshib ketishiga sabab bo‘ladi.

Muallifning fikricha, iqlim o‘zgarishi sharoitida energetik xavfsizlikni ta’minlash nafaqat ekologik nuqtayi nazardan, balki iqtisodiy barqarorlikka ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Qayta tiklanadigan energiyaga o‘tishni tezlashtirish orqali davlatlar nafaqat uglerod chiqindilarini kamaytirishga, balki o‘zlarining energetika ta’minotidagi mustaqilligini kuchaytirishga muvaffaq bo‘ladi. Ammo bu jarayonni amalga oshirishda energiya saqlash texnologiyalari va ixtisoslashgan tizimlarning rivojlanishi zarur, chunki qayta tiklanadigan energiya manbalari doimo barqaror energiya manbai taqdim eta olmaydi.

Tadqiqot ishida ko‘rsatilishicha, Energetik xavfsizlikning huquqiy tartibga solish obyekti sifatida belgilanishi ushbu sohaning muhim va strategik ahamiyatini ko‘rsatadi. Energetik xavfsizlikni ta’minlash, avvalo, energetika sohasiga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni talab qiladi.

1. An’anaviy energiya manbalari – tugallanmaydigan va chegaralangan resurslar (ko‘mir, neft, tabiiy gaz), asosan yer ostidan olinadigan yoqilg‘ilar yordamida energiya ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan manbalar to‘plami sifatida qaraladi. Ushbu manbalar, o‘z navbatida, atmosferaga katta miqdorda uglerod dioksidi chiqarishga olib keladi.

2. An’anaviy energetika tizimining muammolari – eski elektr stansiyalarining past samaradorligi, ta’minotdagi uzilishlar va quvvat uzatish imkoniyatlarining pastligi asosiy muammolarni tashkil etadi.

3. Energetik xavfsizlikda ekologik-huquqiy munosabatlarning obyektlari – bu munosabatlar doirasida himoya qilinishi va tartibga solinishi kerak bo‘lgan moddiy

va nomoddiy mol-mulklarni anglatadi. Ularning huquqiy maqomi qonunlar bilan tartibga solinadi.

4. Energetik xavfsizlikda ekologik-huquqiy munosabatlarning mazmuni – energetik xavfsizlik sohasidagi ekologik-huquqiy munosabatlarning obyektlari, subyektlari, shuningdek, ularning huquq va majburiyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu munosabatlar, o‘z navbatida, ekologik barqarorlikni ta’minlash va energetik xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni anglatadi.

Dissertatsiyaning **“Energetik xavfsizlikni ta’minlashning ekologik-huquqiy istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida energetikada atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari masalasi o‘rganilib, huquqshunos olimlar (Y.O. Jo‘rayev, Sh.X. Fayziyev, J.X. Xolmo‘minov, J.J. Safarov, U.T. Ayubov, A.A. Mixalevich, S.A. Kotuxov, V.A. Kuzmin, Y.V. Soboleva, O.X. Narzullayev)ning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Bu borada alohida ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi energetika siyosatining asosiy rivojlanishining kelajak istiqbollari quyidagilardan iborat: 1. Elektr energiyasining ta’minotini mustahkamlash: elektr energiyasining mustahkam ta’minoti mamlakatning iqtisodiyot va infrastrukturasini rivojlantirishda asosiy maqsad. 2. Energiya tizimlari sifat ko‘rsatkichlarini oshirish: ishtirokchi tarmoqlarni yangilash va elektr energiyasi ishtirokini yengillashtirish. 3. Toza va sifatli energiya ishlab chiqarishni va energiya vositalaridan foydalanishdagi samaradorlikni oshirish. 4. Elektr energiyasining sifatini oshirish.

Tadqiqotchining ta’kidicha, energetika resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni, qazib olish va taqsimlashni monitoring qilish, shuningdek, ularni optimallashtirishni o‘z ichiga olgan energetik xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan barqaror rivojlanish strategiyasini takomillashtirish zarur. Bu, shuningdek, xavfsizlik choralarini oldindan ko‘rish va tegishli maqsadlarni amalga oshirishni ta’minlashni talab qiladi.

Belarus akademigi A.A. Mixalevich energiya xavfsizligini “Normal va favqulodda vaziyatlarda oxirgi iste’molchilarni kerakli miqdorda va sifatli energiya bilan ta’minlash qobiliyati”, – deb ta’riflaydi[13]. Alohida ta’kidlash kerak bo‘lgan yagona narsa shundaki, bu qobiliyat nafaqat ushbu ma’lum bir davrda, balki kelajakda ham ta’minlanishi kerak, chunki uzoq yillar davomida energiya olish kafolatisiz xavfsizlik haqida gapirish mumkin emas.

Dissertantning fikricha, energetika resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni, qazib olish va taqsimlashni monitoring qilish, shuningdek, ularni optimallashtirishni o‘z ichiga olgan energetik xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan barqaror rivojlanish strategiyasini takomillashtirish zarur. Bu, shuningdek, xavfsizlik choralarini oldindan ko‘rish va tegishli maqsadlarni amalga oshirishni ta’minlashni talab qiladi.

Mazkur ta’rif, bizning fikrimizcha, boshqa mualliflarning eng muvaffaqiyatli formulalarini oladi, shuningdek, energiya ekologik xavfsizligi bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Energiya xavfsizligini barcha yoqilg‘i-energetika obyektlarining muammosiz ishlashi kafolatisiz tasavvur qilib bo‘lmasligini, bundan tashqari, xavfsizlik haqida faqat uzoq muddatli nuqtayi

[13] Михалевич А. Пора всерез занятся энергобезопасностю // Экономическая газета, № 35(652) от 20.05.2003.

nazardan va tashqi omillar ta’siridan barqaror bo‘lgan muhitga nisbatan gapirish mumkin.

Ko‘p sonli tahdidlarning milliy va global energiya tizimiga doimiy ta’siri tufayli mutlaq energiya xavfsizligiga erishish mumkin emas. Biroq mazkur tahdidlarni umumlashtirish, tizimlashtirish va tahlil qilish orqali xavflarni kamaytirish va turli masalalarning davlatimiz yoqilg‘i-energetika tizimiga ta’siri oqibatlarini bashorat qilish mumkin.

Tadqiqot ishi davomida aniqlanganidek, energetika sohasida atrof-muhitni muhofaza qilish faqat milliy darajadagi huquqiy choralar bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayonda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va ekologik standartlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Obyektlarni joylashtirishning ekologik-huquqiy mexanizmi fuqarolik jamiyatining ekologik xavfsizligini ta’minlashda, jamoatchilik manfaatlarini himoya qilishda va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmning samaradorligi davlat siyosatining muhokamasi, jamoatchilik ishtirokining yakdilligi va xalqaro standartlarga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Dissertantning fikricha, obyektlarni joylashtirishning ekologik-huquqiy mexanizmi samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi faktorlar muhim. Davlat ekologik standartlarni belgilash va ixtiyoriy mexanizmlarni joriy qilishda markaziy rol o‘ynaydi. Davlat, joylashtirishning ekologik standartlarini ishlab chiqishda fuqarolarning huquqlarini inobatga olishi kerak. Bu, masalan, ekologik ekspertizalarning samaradorligini oshirish va loyiha muhokamalarida jamoatchilik fikrini inobatga olishni talab etadi.

Energetika tizimida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari tushunchasi huquqiy javobgarlikning umumiy tushunchasidan kelib chiqadi, yoxud huquqiy javobgarlikning umumiy nazariyasini o‘rganish huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasini ochib berishga yordam beradi. Shuni aytish kerakki, energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlikning umumiy masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan va tadqiq etilmagan. Qo‘shimcha qilib ta’kidlash kerakki, energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlikning umumiy masalalarida yetarli darajada tadqiqot ishlari olib borilmagan.

